
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

Nazarova N.B.	The Literary Representation of Women's Accomplishments and Charm in Jane Austen's Novels	319
Karimova S.S.	Connotative meaning and pragmatic interpretation in literary texts	325
Radjabova G.G.	Corpus evidence and the limits of intuition in the study of collocation	331
Adinaev O.J.	Onomastic, lexico-semantic and linguocultural foundations for the study of celestial body names	339
Muxitdinova X.S.	Sociocultural and diachronic characteristics of personal names in the Uzbek language	349
Amanov V.B.	Universal values as an object of linguocultural research in Spanish and Uzbek	358
PEDAGOGY		**378**
Kambarova D.I.	The methodology of developing oral speech competence of future foreign language teachers in a digital educational environment	379
Allayarov T.Ya.	Developing communicative competence of public health college students using the standardized patient method	389
Silanteva E.F.	Preliminary training for ESP teachers for effective integrated teaching	396
Omonova E.B., Musoyeva A.B.	Digital revision portfolios for developing English writing skills in Uzbek secondary schools	411
Paluanova Kh.D.	The relationship between pragmalinguistic analysis and linguodidactic design in preservice English teacher education	419
Adamboyeva N.Q.	Age-related development of phonological skills in children aged 7–10 and their role in reading competence	427
Alimardonov L.A.	Theoretical foundations and conceptual model of spiritual technologies in ensuring the information security of young people	435
Pazilova N.M., Abdulhakimova R.A.	Didactic potential and limitations of generative artificial intelligence in teaching Russian	443
Kadirova N.M., Tahirova Sh.Sh.	Stages of working with texts in Russian language classes at higher education institutions	450
Pulatova F.U.	Pragmadidactic features of teaching implicature and indirect speech acts in English language education	456
Sulaymonova M.A.	AI-Assisted Feedback in EFL Writing: Implications for Writing Accuracy and Learner Autonomy	464
Khodjieva Z.M.	Theoretical and Methodological Foundations and Practical Stages of Criterion-Referenced Assessment in Foreign Language Teaching at Higher Education Institutions	489
Musayeva F.M.	The role of specialized vocabulary in developing the lexical competence of oil and gas students	498

Theoretical and Methodological Foundations and Practical Stages of Criterion-Referenced Assessment in Foreign Language Teaching at Higher Education Institutions

Khodjieva Zumrad Makhmudjonovna
zumi44444@gmail.com
Teacher,
Samarkand state institute of foreign languages

Annotation *This article reports the theoretical and methodological principles of criterion-based assessment in the teaching of foreign languages in higher education, as well as the stages of its implementation in practice. Particular attention is paid to the challenges of assessing the four speech components – listening, speaking, reading and writing – as well as to aspects such as linguistic competence, communicative competence, sociolinguistic competence and discourse strategy. Furthermore, the criteria that must be developed in accordance with the requirements of the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR), the types of assessment that correspond to educational objectives, and effective testing are also covered. Additionally, the characteristics of proficiency, placement, diagnostic, achievement and aptitude tests, and their role in determining students' language proficiency levels and individual needs, are also discussed. setting learning objectives according to Bloom's taxonomy, the possibilities for setting learning objectives, designing assessment tasks and determining the expected learning outcomes are considered. Furthermore, the assessment competence of academic staff, the clarity of the criteria, the alignment of assignments with educational objectives and the importance of feedback are established. The article's conclusions establish the objectivity of standards-based assessment, to enhance the objectivity, reliability and transparency of criterion-based assessment, and to improve the quality of foreign language teaching in higher education.*

Keywords *Criterion-referenced assessment, foreign language teaching, higher education, CEFR, communicative competence, linguistic competence, assessment criteria, test types, Bloom's Taxonomy, teacher assessment literacy*

Oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitishda mezonlarga asoslangan baholashning nazariy-metodik asoslari va amaliy bosqichlari

Xodjiyeva Zumrad Maxmudjonovna
zumi44444@gmail.com
O'qituvchi,
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya *Mazkur maqolada oliy ta'limda xorijiy tillarni o'qitishda mezonlarga asoslangan baholashning nazariy-uslubiy tamoyillari va uning amaliyotga joriy etilish bosqichlari yoritilgan. Nutqning to'rt komponentini – eshitib qabul qilish, og'zaki nutq, o'qish va yozuv – baholashdagi qiyinchiliklarga, shuningdek lingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya va diskurs strategiyasi kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, tillarga oid Yevropa tillar bo'yicha umumiy ma'lumot tizimi (CEFR) talablariga muvofiq ishlab*

chiqilishi lozim bo'lgan mezonlar, ta'lim maqsadlariga mos keladigan baholash turlari hamda samarali testlash yoritiladi. Shuningdek, proficiency, placement, diagnostic, achievement va aptitude testlarining xususiyatlari hamda ularning talabalarning til bilish darajasi va individual ehtiyojlarini aniqlashdagi o'rni yoritilgan. Blum taksonomiyasining o'quv maqsadlarini belgilash, baholash topshiriqlarini loyihalashtirish va kutilayotgan ta'lim natijalarini aniqlashdagi imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, baholash jarayonining samaradorligini ta'minlashda professor-o'qituvchilarning baholash kompetensiyasi, mezonlarning aniqligi, topshiriqlarning ta'lim maqsadlariga muvofiqligi va qayta aloqaning ahamiyati asoslangan. Maqola xulosalari mezonlarga asoslangan baholashning xolisligi, ishonchliligi va shaffofligini oshirish hamda oliy ta'limda chet tilini o'qitish sifatini takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar *Mezonlarga asoslangan baholash, chet tilini o'qitish, oliy ta'lim, CEFR, kommunikativ kompetensiya, lingvistik kompetensiya, baholash mezonlari, test turlari, Blum taksonomiyasi, baholash kompetensiyasi*

Теоретико-методологические основы и практические этапы критериально-ориентированного оценивания при обучении иностранному языку в высших образовательных учреждениях

Ходжиева Зумрад Махмуджоновна
zumi44444@gmail.com
Преподаватель,
Самаркандский государственный институт иностранных языков

Аннотация *В данной статье освещаются теоретические и методологические принципы критериальной оценки в процессе преподавания иностранных языков в высших учебных заведениях, а также этапы её внедрения на практике. Особое внимание уделяется проблемам оценки четырех компонентов речи – аудирования, говорения, чтения и письма – а также таким аспектам, как лингвистическая компетенция, коммуникативная компетенция, социолингвистическая компетенция и дискурсивная стратегия. Кроме того, рассматриваются критерии, которые должны быть разработаны в соответствии с требованиями Общеевропейских компетенций владения иностранным языком (CEFR), виды оценки, соответствующие образовательным целям, и эффективные методы тестирования. Кроме того, обсуждаются характеристики тестов на владение языком, тестов для определения уровня, диагностических тестов, тестов на достижения и тестов на способности, а также их роль в определении уровней владения языком учащимися и их индивидуальных потребностей. постановка целей обучения в соответствии с таксономией Блума, Рассматриваются возможности таксономии Блума для постановки учебных целей, разработки заданий для оценки и определения ожидаемых результатов обучения. Кроме того, рассматриваются компетенции преподавательского состава в области оценки, ясность критериев,*

соответствие заданий образовательным целям и важность обратной связи. В выводах статьи подтверждается объективность стандартизированной оценки, повышению объективности, надежности и прозрачности критериальной оценки, а также улучшению качества преподавания иностранных языков в высшем образовании.

Ключевые слова *Критериально-ориентированное оценивание, обучение иностранному языку, высшее образование, CEFR, коммуникативная компетенция, лингвистическая компетенция, критерии оценивания, виды тестов, таксономия Блума, оценочная компетентность преподавателя*

Oliy ta'limda talabalarning chet tilini bilishi va o'qishini nazorat qilishda yozish amaliyoti matnning orfografik aniq, to'g'ri va tushunarli tarzda shakllantirilishi, imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozilishi hamda yozuvda ayrim xatolarga yo'l qo'ymaslik tomonlarini nazorat qilish bilan xarakterlanadi. Bunda, yozish amaliyotida matnning fonetik tomoni ham muhim ahamiyat kasb etib, matnga mos uslubning mantiqan mos kelishi, matndagi ma'no mazmunlarning stilistik qoidalarga rioya qilgan holda yetkazib berish kompetensiyalarining shakllanganligi namunasi sifatida e'tirof etiladi. Talabalar bilimini baholashda *nutqning leksik tomoniga* ham yetarlicha urg'u berilib, ularning lug'at boyligiga ega bo'lgan holda, o'z fikrini turli usullarda ifodalay olish qobiliyati hamda yangi ifodalarni xatosiz qo'llash qobiliyatiga baho beriladi. Shuningdek, nutq faoliyati turlari va til aspektlarini baholash sub'yektiv va ob'yektiv baholash turlariga bo'linib, nutq faoliyatining ikki turini ya'ni chet tillarda yozish va gapirish amaliyotini baholashda baholash mezonlarining mezonlar to'g'ri va samarali tuzilishi adolatli baholashga yordam beradi. Shu bilan birga, talabalarning chet tilini baholash amaliyotida nutqning grammatik tomoni ham e'tiborga olinib bunda grammatik jihatdan kam xatoga yo'l qo'yish amaliyoti nazoratga olinadi.


Oliy ta'limda talabalarning chet tilini bilishi nazorat qilish va baholashda talabalarning ijtimoiy *lingvistik kompetensiyalari* va so'zlashuvga oid ifodalarning ma'nolarini tushunish qobiliyatlari ham e'tiborga olinadi. Bu qobiliyatlar muloqot diskurslarini farqlash, o'z shaxsiy fikr va mulohazalari orqali boshqa ishtirokchilar fikri o'rtasidagi o'zaro munosabatini aniqlay olish qobiliyatidir.

Talabalarning chet tilini bilishi nazorat qilish va baholashda *diskursiv kompetensiyaga* ham yo'naltirish lozimki, bu usul matndagi grammatik va leksik tayanch iboralarlardan suhbatdoshining kayfiyati va xohish irodasini aniqlay olish hamda so'zlashuvdagi nutqiy vaziyatni oldindan ko'ra bilish qobiliyati sifatida baholanadi. Shuninngdek, *strategik kompetensiya* ham so'zlashuv jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib u so'z tanlash yoki vaqtdan yutish uchun mos jumlani tanlash hamda tashabbusni qo'ldan boy bermay tezkor fikr o'ylab topa olish qobiliyatidir. So'zlashuv jarayonida yuzaga kelish mumkin bo'lgan qiyinchiliklarning sababini aniqlash orqali nutq oqimini uzmasdan fikrni almashtira olish, turli murakkabliklardan o'zini olib qochish strategiyalariga kamroq tayangan holda suhbatdoshining shevasi yoki talaffuzi notanish bo'lgan taqdirda qayta so'ray olish qobiliyatini o'zida namoyon etuvchi qobiliyat ham chet tilini bilishdagi strategik qobiliyatga kiradi.

Oliy ta'limda talabalarning chet tilini bilishi nazorat qilish va baholash xususan ularning ingliz tilidagi nutqiy faoliyatining

samarali sermahsul, gapirish va yozish malakalarini o‘zida mujassamlashtirgan, tinglab tushunish va o‘qish malakalarini mukammal o‘zida mujassamlashtirgan qobiliyatlar e‘tiborga olinadi. CEFR bo‘yicha “Chet tilini bilishning umumevropa kompetensiyalari; o‘rganish, o‘qitish va baholash” to‘g‘risidagi normaga muvofiq nutqiy faoliyat turlari va ularning klassifikatsiyasi taqdim etilgan bo‘lib, unga ko‘ra tinglab tushunish va o‘qish malakalarining qamrab olingan vazifalari belgilab berilgan (Faez et al., 2011). Aynan ushbu vazifalar oliy ta‘lim muassasalarida CEFR bo‘yicha talablar talabalarning chet tilini bilish darajasini nazorat qilish va baholashda chet tili bo‘yicha ta‘lim berish jarayonining asosiy maqsadi sifatida ajratib olingan. Bugungi kunda “Chet tilini bilishning umumevropa kompetensiyalari; o‘rganish, o‘qitish va baholash”ning (CEFR misolida) yana bir afzalligi shundaki, undagi chet tilini bilishning barcha darajalaridagi nutqiy faoliyatni baholash til o‘rganishdagi vazifalarini mezonlarga asoslangan holda baholashga mos keladi.

Bugungi kunda ta‘lim tizimining maqsadi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va mezonlarga asoslanib baholashni yo‘lga qo‘yishdir. Baholash turlarining kamchiliksiz bo‘lishi uning natijalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarning bo‘lmasligi, mezonlarga asoslangan to‘g‘ri baholashda imkon beradi. Shuningdek, baholovchining baholash kompetensiyasiga ega bo‘lganligi, baholash mezonining kamchiliklarsiz olib borishi, tajribali amaliyotlar o‘tkazishi vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni bartaraf etib, baholash mezonining to‘g‘ri va samarali tuzilishiga yordam beradi. Mezonlarga asoslangan baholashda quyidagi mezon turlari namuna sifatida olinadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. *Baholash mezonlarining turlari*

Oliy ta‘limda talabalarga chet tilini o‘qitish kommunikativ faoliyat va shaxsga yo‘naltirilgan, integrativ va kompetensiyali yondashuvlar asosida ishlab chiqilganligi sababli ushbu mezonlar talabalarning chet tilida malakalarini mezonlarga asoslanib baholashda professor-o‘qituvchilarni esa ob‘yektiv bo‘lishiga, nazorat o‘tkazishning me‘yoriy qoidalariga rioya qilishga hamda talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini bugungi kun ta‘lim tizimining talabiga binoan xolisona baholashga xizmat qiladi. Oliy ta‘limda talabalar bilimini mezonlarga asoslangan holda baholash chet tili tili o‘qituvchilari oldida bir talay metodik muammolarni ham keltirib

chiqarmoqdaki bu quyidagi hollarda namoyon bo‘ladi;

- tekshiruv ob’yekti nazariy va amaliy jixatdan puxta o‘rganilgan bo‘lsada o‘qituvchi talabaning o‘rganilayotgan chet tilidagi nutq, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilib boradi.
- talabalarning kamchiliklari xususan, qay daraja ko‘nikma va malakaga erishgan, qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganligini nazorat qiladi.

Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini mezonlarga asoslangan holda baholashda boshqa o‘quv fanlariga nisbatan talabaning chet tili bo‘yicha lingvistik kompetensiyasini baholash murakkkab jarayon bo‘lib, talabaning gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozish bo‘yicha ko‘nikma va malakalar muntazam shakllantirib borishni taqozzo etadi.

Talabalarning til bilish ko‘nikmalarni nazorat qilishda ularning leksik, grammatik va talaffuzni o‘zlashtirish bo‘yicha nutqiy qobiliyatlari ularni amalda qo‘llay olish darajasi baholanadi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning til bilish malakalari tekshirilganda ularning nutqiy qobiliyatlari hamda uni muloqot davomida qo‘llay olish me’yorlari inobatga olinadi. Xususan, chet tilida gapirishda muloqot va suhbat qobiliyati hamda chet tilida gapirish madaniyatining rivojlanganligi, tinglab tushunishda har qanday audiomatnni bir marta tinglab mazmunini fahmlay olishi, o‘qishda esa grafik matndan axborot ola bilish qobiliyatlari sinovdan o‘tkaziladi. Ta’limning turli bosqichlarida talabalarning ko‘nikma va malaka darajasi turlicha shakllangan bo‘ladi. Ularga qo‘yilgan yakuniy talablar o‘quv dasturida belgilangan mashg‘ulotlarning yakuni bo‘yicha mezonlar asosida nazorat qilinadi va baholanadi.

Ayrim tadqiqotlarda nazorat natijalari ta’lim jarayonini yaxshilashda rag‘batlantiruvchi vosita sifatida qo‘llanishini qayd etilgan (Galskova & Gez, 2006). Jumladan, oliy ta’limda talabalar chet tilini bilish bo‘yicha talabalar bilimini nazorat qilish faqat baholash uchun emas balki, ta’limni rivojlantiruvchi, ularning leksik kompetensiyalarini rag‘batlantiruvchi vositadir. Albatta baholashning belgilangan me’yorlar va dasturdan chetga chiqmagan holda olib borilishi mezonlarga asosan baholash talablarga javob berishi lozim.

Yuqorida keltirilgan nazariy tahlilga asoslanib quyidagilarni ta‘kidlash mumkinki, oliy ta’limda talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini mezonlarga asoslangan holda nazorat qilish va baholash jarayoni professor-o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatining ajralmas qismidir. Ushbu jarayonni samarali olib borish uchun professor-o‘qituvchilar professional baholash kompetensiyasiga ega bo‘lishlari lozimdir. Zero, oliy ta’limda nazorat jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish, olib borish, samarali mezonlar yaratish, baholash usullarini to‘g‘ri tanlash va talabalarga natijani e’lon qilishda ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni qo‘llashni to‘g‘ri va samarali olib borish uchun ingliz tili o‘qituvchilaridan CEFR “Chet tilini bilishning umumevropa kompetensiyalari; o‘rganish, o‘qitish va baholash to‘g‘risida”gi me’yorlarga asoslanib, talabalarning nutqiy faoliyati va lingvistik kompetensiyalarini baholashlari talab etiladi.

Ta’lim-tarbiyaning bugungi kunda asosiy vazifalaridan biri yosh avlodni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta egallagan malakali kadr sifatida jamiyatga yetkazib berishdan iborat. Talaba olgan bilimlaridan hayotda foydalana oladigan, jamiyatda o‘z munosib o‘rnini egallashga qodir bo‘lganda oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritadigan professor-o‘qituvchilarning mas’uliyatli faoliyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Ta’lim sohasidagi islohotlar oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya masalalariga yangicha yondashuvni talab etmoqdaki, bu o‘z navbatida professor-o‘qituvchilarda yangilikka intilish va izlanuvchanlikni shakllantirmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim dasturini amalga oshirishda qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik yondashuvlar talabalarni yangilikka intilishga, chet tillarni mukammal o‘rganishga, gapirish, tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish va yozish imkoniyatlari yanada oshirishga xizmat

qilishi bilan birga professor-o‘qituvchilarda mezonalarga asoslanga baholash asosida talabalar bilimini nazorat qilishga kompetensiyalarini shakllantirib bormoqda.

Bugungi kundagi oliy ta‘lim tizimiga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biri salohiyatli va malakali kadrlarni jamiyatga yetishtirib berishdir. Oliy ta‘limda baholash tizimi talabalarning bilish kompetensiyalarini shakllantirishga ta‘sir qilar ekan, mezonlarga asoslangan baholash esa ushbu maqsadlarni ro‘yobga chiqaruvchi o‘lchov sifatida xalqaro standartlarga mos ravishda talabaning intelektual qobiliyatini shakllantiruvchi jarayondir. Mezonlarga asoslangan baholash muayyan ta‘lim tizimining maqsadi va mazmuniga mos keladigan, talabalarning kognitiv malakalarini hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga hissa qo‘shadigan ta‘lim jarayonining boshqaruv tizimiga oldindan ma‘lum bo‘lgan baholash jarayonidir.

Oliy ta‘lim professor-o‘qituvchining talabalarni samarali baholashi, nazorat turlarini to‘g‘ri tashkil etishi va mavjudlarini to‘g‘ri tahlil etish kompetensiyasi, ya‘ni baholash kompetensiyasiga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash mezonlariga oid ilmiy tadqiqotlarda muayyan sinov (*assessment, test*) o‘tkazmasdan turib ta‘lim berishni davom ettirish mantiqsiz ekanligi to‘g‘ri qayd etilgan (Thomas & Vincent, 2001). Ta‘lim jarayonida talabalar bilimini mezonlarga asoslangan baholash orqali nazorat qilishda nazorat turlariga alohida e‘tibor qaratiladi. Bu borada Buyuk Britaniya olimlar tomonidan test yoki assessment tuzish, sinovdan o‘tkazish va uni amaliyotda qo‘llash, assessmentning maqsad vazifalarini belgilash, assessmentning talabalar kompetensiyasiga mosligini tekshirish va qayta aloqa kabi amaliy bosqichlarini ishlab chiqilgan. Ushbu bosqichlar professor-o‘qituvchilarga *assessment* tuzish, uni sinovdan o‘tkazish va qo‘llash jarayonida muhim mezon bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi (Brown, 2004).

Oliy ta‘limda talabalarni mezonlarga asoslanib to‘g‘ri baholashda birinchi o‘rinda uning maqsadini aniqlab olish, maqsadni aniqlash orqali esa baholashning to‘g‘ri turini tanlash professor-o‘qituvchiga baholashdagi qiyinchiliklarda ko‘mak beruvchi jarayondir. Shuningdek, oliy ta‘limda talabalarni mezonlarga asoslangan orqali bilimini nazorat qilishning an‘anaviy va noan‘anaviy turlari mavjud ham bo‘lib, ular muayyan fan yoki ta‘lim maqsadiga qarab qo‘llaniladi. Talabalar bilimini doimiy, joriy nazoratlarda baholashdagi qiyinchiliklar an‘anaviy baholash turlari orqali, oraliq nazoratlardagi baholashdagi qiyinchiliklar esa noan‘anaviy baholash turlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Aynan, ushbu jarayonlar talabalarning o‘zlashtirgan bilimlarini emas, balki olgan ko‘nikma va malakalarini ham aniqlab borishga imkon beradi. Oliy ta‘limda talabalarning bilimini nazorat qilish va baholashni umumlashtirish yakuniy nazoratda amalga oshirilib, baholashda testdan foydalanish ob‘yektiv, ko‘p sonli ta‘lim oluvchilarni nazorat qilishga va barchaga bir xil sharoit yaratishga shuningdek, qisqa muddatda ularning bilimini tekshirishga imkon beradi. Shuni ham alohida ta‘kidlash kerakki, test jarayoni orqali egallangan malaka va bilimlarni amaliyotda qo‘llashni tekshirish imkoniyati past bo‘lganligi sababli mezonlarga asoslangan baholashga muvofiq yakuniy nazoratda qo‘llaniladi. Mezonlarga asoslangan baholashda qo‘llaniladigan testlarning turlari va tasnifi quyidagi jadvalda keltirilgan:

Test turi	Test turining tasnifi
Proficiency test	Malaka testi – ushbu test turi talabaning tildagi kompetensiyasini baholaydi. Bunda kurs kontenti yoki o'tilgan mavzu, yoxud ayni bir nutq faoliyati turini baholash emas balki talabaning tildagi umumiy qobiliyatini baholash qamrab olinadi. Ushbu test turiga IELTS, TOEFL CEFR yoki boshqa C1 daraja beruvchi testlar misol bo'la oladi
Placement test	Kirish testi – ushbu test turi pedagoglarga talabalarning bilim darajalari haqida ma'lumotga ega bo'lish va ularni darajalari bo'yicha guruhlarga ajratishga yordam beradi.
Diagnostic test	Tashxislash testi – ushbu test turi muayyan tildagi ko'nikma yoki malakalarni diagnostik tahlil qilishga yordam beradi, aniqrog'i o'qituvchi bu test orqali talabalarda qaysi til aspektida qiyinchilik borligini aniqlab oladi. Shuningdek, diagnostik test yordamida o'qituvchilar kurs davomidagi mavjud kamchiliklarni aniqlab ularni takomillashtirib borishga erishadi
Achievement test	Muvaffaqiyat testi – to'g'ridan to'g'ri muayyan fan mazmuni va o'tilgan mavzularga bog'liq bo'lib, ushbu test turi asosan yakuniy nazoratda qo'llaniladi. Shuning uchun mazkur testda faning maqsadi samarali egallaganligini namoyon bo'ladi
Aptitude test	Qobiliyat testi – ushbu test turi boshqa testlar orasida keng tarqalmagan bo'lib, uning maqsadi insonning ikkinchi tilni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyatini aniqlashtirish imkonini beradi (Brown, 2004)

1-jadval. *Test turlari va ularning tasnifi*

Professor-o'qituvchi fan bo'yicha baholash turi aniqlangandan so'ng o'tilgan fan bo'yicha qaysi jihatini baholashni aniq bilishi lozim. Buning uchun fanning o'quv maqsadlari aniq qo'yilgan bo'lishi va shu maqsadlarning talaba faoliyatida namoyon bo'lishi baholanib boriladi. Ushbu jarayonni to'g'ri amalga oshirishda mezonlarga asoslangan nazorat qoidalari va talabalar bilimini nazorat qilishning boshqa muqobil variantlaridan foydalaniladi. Jumladan, "Blum taksanomiyasi" ham bunga misol bo'la oladi. Ushbu taksonomiya o'quv maqsadlarini belgilashda va ularni talaba faoliyatida baholashda mos keladi. O'quv maqsadlarining aniqligi o'qituvchi va talabalar uchun mos o'quv jarayonini tuzishga va ularni baholash uchun samarali assessment yaratishga yordam beradi (Brown, 1994).

Mezonlarga asoslangan baholashda tuziladigan testlarning tasniflanishi testlarning tuzilishini shakllantiruvchi jarayondir. Testlarning tasniflanishi uning tuzilishi, mazmuni, vaqti, qo'llangan texnologiyasi, baholash mezoni va shu kabi ma'lumotlarni o'zida jamlaydi. Ushbu tasniflanishning afzalligi shundaki u o'qituvchilarga assessment tuzish jarayoniga tegishli savollarga javob topishga yordam beradi. Quyida Samarqand davlat chet tillari instituti talabalarining C1 darajada gapirish malakasini baholash uchun tuzilgan testlar tasnifi keltirilgan.

Content. Operations; Communicating; likes, dislikes, preferences, agreement or disagreement, views, comments, attitudes, justifications, and comparisons. Depicting; persons, action, event, and object **Part I** is a conversation between the rater and the test-taker. It checks the capacity of a candidate to provide information on one's own hobbies, studies, careers, families, etc. **Part II** asks to describe two images. It checks the capacity of a candidate to provide commentary on a visual clue regarding a social issue with an underpinning argument and an illustrative example. Part 3 requires candidate to state ideas and explain why he/she agrees or disagrees. It examines the capacity to articulate a formal viewpoint in response to inquiries and to advance opposing arguments. Type: **Part I** interview **Part II** Extensive speech **Part III** discussion Topics; topics that appeal to and are familiar to the candidate **Part I**-hometown **Part II** **Part III** Listeners: Interlocutor (rater), and fellow test-taker structural scope; Unrestricted vocabulary range; General Academic Style and dialect; Formal academic style, standard American or British English accent; formal academic style Processing speed: The rate of speaking will change depending on the assignment. Structure, time, medium, and instrument Structure; The speaking test is divided into three sections. Medium; Face-to-face interview between rater and test-taker; Timing: **Part I** lasts 3 minutes. **Part II** has a time limit of 3 minutes (1 minute for preparing and 2 minutes for replying). **Part III** (three to four minutes) Total permitted time - 10 minutes per candidate Intrument: Interview

2-jadval. *Malaka testi (gapirish bo'yicha) Proficiency test (on speaking)*

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tashkilotlarida chet tilini o'qitish jarayonida mezonlarga asoslangan baholashdan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va talabalarning til o'rganishdagi yutuqlarini aniq belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv talabalarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki o'z fikrini chet tilida erkin ifodalash, muloqotga kirishish va turli vaziyatlarda tildan samarali foydalanish qobiliyatlarini ham baholash imkonini beradi. Shu sababli tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini leksik, grammatik, fonetik, ijtimoiy lingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar bilan uzviy bog'liq holda baholash lozim. CEFR talablariga muvofiq ishlab chiqilgan aniq va tushunarli mezonlar esa talabalarning til bilish darajasini belgilash, ularning kuchli tomonlari va qiyinchiliklarini aniqlash hamda keyingi o'quv faoliyatini rejalashtirishga yordam beradi.

Mezonlarga asoslangan baholashni samarali tashkil etish uchun, avvalo, baholash maqsadini aniqlash, unga mos nazorat turini tanlash, topshiriqlarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish hamda talabalarga mazmunli qayta aloqa berish zarur. Bu jarayonda proficiency, placement, diagnostic, achievement va aptitude testlaridan tegishli maqsadga muvofiq foydalanish alohida o'rin tutadi. Blum taksonomiyasi esa o'quv maqsadlarini belgilash, topshiriqlarni talabalarning bilim va ko'nikmalariga mos ravishda tuzish hamda kutilayotgan ta'lim natijalari bilan baholash o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu jumladan, baholash natijalarining sifati ko'p jihatdan professor-o'qituvchilarning baholash bo'yicha bilim va ko'nikmalariga, mezonlarning aniqligi va o'lchanuvchanligiga hamda topshiriqlarning talabalarning til bilish darajasiga mosligiga bog'liq. Ayniqsa, gapirish va yozish ko'nikmalarini baholashda aniq deskriptorlar, umumiy talablar va tegishli baholash vositalaridan foydalanish baholovchining shaxsiy qarashlari ta'sirini kamaytirib, natijalarning ishonchliligi va adolatliligini oshiradi. Shunday qilib, CEFR talablariga mos, izchil va maqsadli tashkil etilgan mezonlarga asoslangan baholash tizimini oliy ta'lim amaliyotiga joriy etish talabalarning chet tilini amalda qo'llash darajasini aniqlash, ta'lim jarayonidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va ta'lim sifatini yanada yaxshilash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

References:

1. Brown, H. D. (1994). *Principles of language learning and teaching* (3rd ed.). Prentice Hall Regents.
2. Brown, H. D. (2004). *Language assessment: Principles and classroom practices.* Longman.
3. Faez, F., Majhanovich, S., Taylor, S., Smith, M., & Crowley, K. (2011*).* The power of "Can Do" statements: Teachers' perceptions of CEFR-informed instruction in French as a second language classrooms in Ontario. *The Canadian Journal of Applied Linguistics, 14*(2), 1–19.
4. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. (2006). *Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика.* Издательский центр «Академия».